

3. Financial Times. (2024, 31-avgust). Italy weighs sharp tourist tax rise in furore over impact of visitors. <https://www.ft.com/content/c3c478ff-dac2-43f3-9439-0e8b42d4cd80> Financial Times
4. Bramwell, B., & Lane, B. (2013). Sustainable tourism: Progress, tensions, and opportunities. *Journal of Sustainable Tourism*, 21(5), 1-23. <https://doi.org/10.1080/09669582.2013.785554>
5. Buckley, R. (2012). Sustainable tourism: Research and reality. *Annals of Tourism Research*, 39(2), 528-546. <https://doi.org/10.1016/j.annals.2012.02.003>
6. Hall, C. M. (2019). Constructing sustainable tourism development: The 2030 agenda and the SDGs. *Journal of Sustainable Tourism*, 27(7), 1044-1060. <https://doi.org/10.1080/09669582.2018.1560456>
7. Gössling, S., Scott, D., & Hall, C. M. (2015). Inter-market variability in CO2 emission-intensity in tourism: Implications for destination marketing and carbon management. *Tourism Management*, 46, 203-212. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2014.06.021>
8. UNWTO. (2018). Tourism for Development: The Sustainable Development Goals Journey. United Nations World Tourism Organization. <https://www.e-unwto.org>
9. Sharpley, R. (2020). Tourism, sustainable development and the theoretical divide: 20 years on. *Journal of Sustainable Tourism*, 28(11), 1932-1946. <https://doi.org/10.1080/09669582.2020.1779732>
10. Weaver, D. (2011). Can sustainable tourism survive climate change? *Journal of Sustainable Tourism*, 19(1), 5-15. <https://doi.org/10.1080/09669582.2010.536242>
11. Mihalic, T. (2016). Sustainable-responsible tourism discourse—Towards 'responsustainable' tourism. *Journal of Cleaner Production*, 111, 461-470. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2014.12.062>
12. UNWTO. (2022). Measuring Sustainability in Tourism. United Nations World Tourism Organization. <https://www.unwto.org>
13. Lane, B. (2009). Thirty years of sustainable tourism: Drivers, progress, problems—and the future. *Tourism Management*, 30(1), 3-10. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2008.03.019>
14. Hall, C. M., Gössling, S., & Scott, D. (2015). *The Routledge handbook of tourism and sustainability*. Routledge.
15. Dodds, R., & Butler, R. (2019). *Overtourism: Issues, realities and solutions*. De Gruyter.
16. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 agenda for sustainable development*. United Nations. <https://sustainabledevelopment.un.org>
17. Goodwin, H. (2016). *Responsible tourism: Using tourism for sustainable development*. Goodfellow Publishers.
18. Font, X., & McCabe, S. (2017). Sustainability and marketing in tourism: Its contexts, paradoxes, approaches, and potential. *Journal of Sustainable Tourism*, 25(7), 869-883. <https://doi.org/10.1080/09669582.2017.1301721>

O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA MAHALLIY JAMIYATLARGA IJOBIY TA'SIRI

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich

Toshkent davlat Agrar Universiteti i.f.d., Akademik

Yusupov Bekzod Ulug'bekovich

Fan va texnologiyalar Universiteti o'qituvchi

Salmetova Umida Xamidullaevna

Oriental Universitet magistranti

Anatatsiya: O'zbekistonda ekoturizm sohasining hozirgi ahvoli jadal rivojlanish bosqichida desak mubolag'a bo'lmaydi. So'ngi yillarda davlat tomonidan qabul qilingan qator

qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari tufayli bu yo'nalish sezilarli o'zgarishlarga yuz tutmoqda. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri 2019-2025 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish kontseptsiyasi" hisoblanadi. Ushbu kontseptsiya asosida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Ekoturizmni rivojlantirish milliy dasturi" ishlab chiqilgan. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda davlat byudjeti mablag'laridan tashqari xalqaro moliya institutlari, xorijiy investorlar va xususiy sektor investitsiyalari ham muhim ro'l o'ynamoqda.

Kalit so'zlar: ekoturizm infratuzilmasi, Eko-mehmonxonalar, Tabiatni muhofaza qilish, Ekoturizm xizmatlarini takomillashtirish.

Kirish : Ushbu koferensiyada O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar, eko turizm sohasiga yo'naltirilgan davlat dasturlari va ushbu sohadan kutilayotgan natijalar batafsil ko'rib chiqiladi. Ekoturizm sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, uning moliyaviy jihatlari va kelajak istiqbollari qamrab oladi.

Asosiy qisim: Ekoturizm — bu atrof-muhitga zarar etkazmaydigan, mahalliy aholi turmush tarzini hurmat qiladigan va tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan turizm shaklidir. O'zbekiston o'zining betakror tabiati, noyob landshaftlari, qo'riqxonalar va milliy bog'lari bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish quyidagi muhim ahamiyatga ega:

- Iqtisodiy manfaat—qishloq joylarida ish o'rinlarini yaratish va mahalliy aholi daromadlarini oshirish;
- Ekologik barqarorlik — tabiat resurslarini asrash va bioxilma-xillikni saqlash;
- Madaniy almashinuv — mahalliy urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish;
- Mintaqaviy rivojlanish — chekka va iqtisodiy rivojlanmagan hududlarga investitsiyalarni jalb qilish.

Bugungi kunda mamlakatimizda ekoturizm sohasiga e'tibor tobora ortib bormoqda. Prezident va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar va davlat dasturlari doirasida ekoturizmni rivojlantirish uchun sezilarli mablag'lar ajratilmoqda. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlari yaratilishiga, turizm infratuzilmasining yaxshilanishiga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ekoturizm sohasining hozirgi ahvoli jadal rivojlanish bosqichida desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda davlat tomonidan qabul qilingan qator qonunlar, prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari tufayli bu yo'nalish sezilarli o'zgarishlarga yuz tutmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ekoturizm marshrutlari asosan qo'yidagi yo'nalishlarda joylashgan:

- Toshkent viloyatidagi Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'i
- Jizzax viloyatidagi Zomin milliy bog'i va Nurota davlat qo'riqxonasi
- Surxondaryo viloyatidagi Boysun tog'lari va Hisor davlat qo'riqxonasi
- Qashqadaryo viloyatidagi Hisor tog' tizmalari
- Qoraqalpog'istondagi Orol dengizi mintaqasi va Ustyurt platosi
- Buxoro viloyatidagi Qizilqum cho'li

Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyadan oldingi davrda O'zbekistonga kelgan turistlarning taxminan 10-15 foizi ekoturizm maqsadida tashrif buyurgan. Pandemiyadan keyingi davrda esa ekoturizmga qiziqish yanada ortib, 2022 yilda mamlakatga tashrif buyurgan turistlarning 18-20 foizi ekoturizm yo'nalishlarini tanlagan. Bu esa ekoturizm sohasining kelajakda yanada rivojlanishi uchun yaxshi asos yaratmoqda.

O'zbekistondagi ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi mamlakat tabiiy resurslaridan barqaror foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va mahalliy aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan muhim tashabbusdir. Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish

uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan.

Davlat dasturining asosiy maqsadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekistonda ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish
- Tabiiy hududlarni muhofaza qilish va saqlash choralari kuchaytirish
- Mahalliy aholiga qo'shimcha daromad manbalarini yaratish
- Xalqaro ekoturizm bozorida O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish
- Ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirish

Ekoturizm dasturi O'zbekistonning boy biologik xilma-xilligi va noyob landshaftlari 4 Orol dengizi havzasi, Qizilqum cho'li, Tyan-Shan va Hisor tog'lari, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi kabi 4 asosida qurilgan. Bu hududlar nafaqat tabiat ishqibozlari, balki madaniyat va tarix bilan qiziquvchilar uchun ham jozibali bo'lib, ekoturizmni O'zbekistonning turizm industriyasidagi eng istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Dastur 2022-2026 yillar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, uning samaradorligini baholash uchun har yili monitoring o'tkazilishi belgilangan. Bu dastur orqali O'zbekiston mintaqadagi ekoturizm markaziga aylanishi va jahon ekoturizm xaritasida munosib o'rin egallashi ko'zlangan.

Dastur Doirasidagi Asosiy Harajatlar Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi doirasida ko'zda tutilgan harajatlar turli manbalarga asoslangan bo'lib, davlat budjetidan tashqari xususiy investitsiyalar, xalqaro moliyaviy institutlar grantlari va qarzlari ham jalb qilinishi rejalashtirilgan. Dastruning umumiy moliyaviy hajmi 5 yil uchun taxminan 450 milliard so'mni tashkil etadi. Bu mablag'lar quyidagi yo'nalishlarga sarflanadi:

- 1) Kadrlar Tayyorlash va Malaka Oshirish :
 - Ekoturizm sohasidagi mutaxassislar tayyorlash - 25 mlrd so'm
 - Xalqaro tajriba almashish dasturlari - 15 mlrd so'm
 - Mahalliy aholini turizmga jalb qilish bo'yicha treninglar - 20 mlrd so'm
- 2) Infratuzilma Qurilishi va Modernizatsiyasi :
 - Ekoturizm yo'nalishlaridagi yo'llarni ta'mirlash va yangilarini qurish - 120 mlrd so'm;
 - Tabiiy hududlarda zamonaviy kemping va ekoqo'naloqlarni barpo etish - 80 mlrd so'm;
 - Axborot markazlari va ko'rgazma komplekslarini qurish - 45 mlrd ;so'm
 - Muqobil energiya manbalarini o'rnatish - 35 mlrd so'm;
- 3) Marketing va Brending :
 - Xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish - 18 mlrd so'm Tabiiy hududlarda zamonaviy kemping va ekoqo'naloqlarni barpo etish - 80 mlrd so'm;
 - Raqamli marketing kampaniyalari - 25 mlrd so'm Muqobil energiya; manbalarini o'rnatish - 35 mlrd so'm;
 - O'zbekiston ekoturizm brendini yaratish - 12 mlrd so'm;
- 4) Boshqa harajatlar :
 - Ilmiy tadqiqot ishlari - 30 mlrd so'm;
 - Monitoring va baholash - 15 mlrd so'm;
 - Zaxira mablag'lari - 10 mlrd so'm;

Ushbu harajatlar dasturning turli bosqichlarida taqsimlangan bo'lib, birinchi yilda infratuzilma qurilishiga ko'proq mablag' yo'naltirilishi, keyingi yillarda esa kadrlar tayyorlash va marketing faoliyatiga e'tibor qaratilishi rejalashtirilgan. Harajatlarning muntazam monitoring qilinishi va zarur hollarda qayta taqsimlanishi ham ko'zda tutilgan. Mahalliy Jamiyatlar Uchun Kutilayotgan Foyda :

Daromadlarning o'sishi: Ekoturizm dasturi mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbalarini yaratish orqali qishloq joylaridagi turmush darajasini oshirishi kutilmoqda. Turizmdan keladigan bevosita daromad manbalari orasida mehmonxona xizmatlari, mahalliy

taomlar tayyorlash, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, gid xizmatlari ko'rsatish va transport xizmatlari mavjud.

Ish o'rinlari yaratish :

Dastur doirasida 5 yil ichida ekoturizm bilan bog'liq sohalarda kamida 15,000 yangi ish o'rinlari yaratilishi prognoz qilinmoqda. Bu ish o'rinlari asosan qishloq joylaridagi ishsizlik muammosini hal qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Kasbiy malakani oshirish :

Ekoturizm dasturi doirasida mahalliy aholini turizm sohasida tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshiriladi. Bu orqali mahalliy aholi yangi kasblarni egallash va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mahalliy jamiyatlar uchun ekoturizm dasturining boshqa muhim foydalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Infratuzilmaning yaxshilanishi: Ekoturizm markazlariga olib boruvchi yo'llarning ta'mirlanishi va yangilarining qurilishi, shuningdek kommunal xizmatlar (suv, elektr, internet) sifatining oshishi mahalliy aholi turmush darajasini ham yaxshilaydi.

Tabiatni muhofaza qilish madaniyatining rivojlanishi: Ekoturizm mahalliy aholining tabiatni muhofaza qilish va barqaror foydalanish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda tabiiy resurslarni saqlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy madaniyat va an'analarining saqlanishi: Ekoturizm mahalliy madaniyat, an'analar va hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi, chunki sayyohlar ko'pincha mahalliy madaniyat bilan tanishishga qiziqadilar.

Ijtimoiy kapitalning o'sishi: Ekoturizm loyihalarini amalga oshirish jarayonida mahalliy jamoalarning birgalikda ishlashi va qaror qabul qilishda ishtiroki ijtimoiy kapitalning o'sishiga olib keladi.

Dastur doirasida mahalliy jamiyatlarning faol ishtirokini ta'minlash uchun "CommunityBased Tourism" (CBT) modeli joriy etilishi rejalashtirilgan. Bu model bo'yicha ekoturizm loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishda mahalliy jamoalar ishtirokini ta'minlash, shuningdek, foyda va daromadlarning adolatli taqsimlanishini nazorat qilish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Xulosa : Dasturni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va muammolarni bartaraf etish maqsadida maxsus "Xavflarni boshqarish rejasi" ham ishlab chiqilgan. Bu rejada quyidagi xavf omillari va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan:

Moliyaviy xavflar Investitsiya loyihalarini diversifikatsiya qilish va alternativ moliyalashtirish manbalarini izlash , Ma'muriy to'siqlar bunda Idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, Ekologik xavflar bunda Atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimini joriy etish va doimiy ekologik monitoring o'tkazish, Mahalliy aholining qarshiligi bunda Aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish va ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish, Kadrlar masalasi bunda Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish .Ushbu mexanizmlar to'g'ri qo'llanilishi dasturning samarali amalga oshirilishini va ko'zlangan natijalarni belgilangan muddatlarda erishishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son Farmoni. lex.uz

2. "O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi (2022–2026)" – Norma.uz rasmiy portali. norma.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi statistik ma'lumotlari (2022).

4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi axborot materiallari.